



INTERNET TARMOG'INI O'QUVCHILAR PSIXIKASIGA VA O'QUV MOTIVIGA TA'SIRI

Sodiqova E'tiborxon Maxamatabdullayevna

Norin tumani MMTBga qarashli

27-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Global kompyuter tarmog'i — Internetning rivojlanishi natijasida, jahon ta'lim tizimi takomillashuvining yangi istiqbollari paydo bo'ldi.

Hozirda ta'limning an'anaviy usullari Internet, kompyuter va kommunikatsiya tizimlarini qo'llashga asoslangan o'qitishning yangi uslublari bilan boyib bormoqda. Shu bilan birgalikda Sun'iy intellektning foydali hamda zararli tomonlari bilan tanishib chiqishimiz lozim. Yosh avlod tarbiyasiga psixikasiga qanday tasir ko'rsatmoqda. Zamonaviy axborot ma'lumotlarida maqsadga muvofiq foydalanish tartiblari bilan tanishib chiqishimiz lozim. Hamda kompyuter o'yinlariga tobe bo'lib qolgan shaxslarda kuzatish tadqiqotlari natijasida olingan ma'lumotlar bilan tanishib chiqishimiz lozim. Hozirda uyali aloqa vositarisiz hayotimizni tassavur etib bo'lmaydi. Bu kabi qurimalar bizni uzog'imizni- yaqin,og'irimizni-yengil qilib bizga juda katta foyda keltirmoqda. Lekin bunday qurilmalardan har bir inson o'z bilganicha foydalanadi. Shuning uchun barchamiz bu kabi uskunalardan faqat foydali tomoidan foydalanishimiz zarur. Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, stress, qo'rquv, taraqqiyot, xotira, tafakkur, kognitiv jarayonlar, diqqat, texnika, agressiya, axborot komunikatsiyalar, psixika, emperik tadqiqotlar, komunikativ, destruktiv. Ta'limni isloh qilish bo'yicha 1997-yilda davlatimiz tomonidan qabul qilingan asosiy hujjatlardan biri O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlovchi ta'lim muassasalarida



ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari. (AKT) kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida tashkil etish zarurligi alohida takidlangan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2002-yil 30-mayda qabul qilingan «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorda kadrlar tayyorlash sohasini takomillashtirish, mamlakatimiz salohiyatini oshirishning demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqorolik jamiyati qurishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. XXI asrning har bir ma'rifatli, ziyoli kishisi albatta, axborot texnologiyalarini yaxshi egallagan bo'lishi shart. Binobarin, aksariyat hollarda, inson faoliyati uning axborotga ega bo'lganlik darajasi, ushbu axborotlardan samarali foydalana olish qobiliyatlariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ixtiyoriy soha bo'yicha zamonaviy mutaxassis daqiqa sayin oshib borayotgan axborot oqimida bemalol yo'l topa olishi uchun, u kompyuterlar, telekommunikatsiya va boshqa aloqa vositalari yordamida tegishli axborotni o'z bilishi, qayta ishlash hamda ulardan foydalana olishi kerak. Axborot texnologiyalari hozirgi kunda insonlar ish faoliyatining samaradorligi va ish unumini oshiruvchi vosita sifatida qaralmoqda. Ammo asalning ham ozi shirin degan maqol bor xalqimizda. Sun'iy intellekt yani (kompyuter, uyali aloqa vositalari, ijtimoiy tarmoqlar) endigina o'sib borayotgan yosh avlod psixikasiga (ruhiyatiga) tarbiyasiga ta'sir qilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarga yoki kompyuter o'yinlariga tobe bo'lib qolish holari ko'p kuzatilmoqda. Dunyo miqyosida kompyuter texnologiyalari ta'siri natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlarining ijobiy va salbiy ijtimoiy-psixologik oqibatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar ahamiyati oshmoqda. Kompyuterga tobelik dastlab ijobiy ko'rinishga ega bo'lsada bunday tobelik “shaxs degradatsiyasiga, ijtimoiy mavqeyi, “Men”ni yo'qolishi, psixologik zo'riqish, agressiyani yuzaga keltiradi. Xorij tadqiqotchilari Internetga tobelik diagnostikasi mezonlari va korreksiyalash usullarini rivojlantirmoqda. Mazkur sohada qator tadqiqotlar olib borilganiga qaramay kompyuterga tobelikning xarakterologik xususiyatlariga bog'liqlik mexanizmlar yetarlicha o'rganilmaganligi kompyuterga tobelikning shaxs xarakterologik xususiyatlariga ta'sirlarini aniqlash yuzasidan ilmiy tadqiqotlar zarurligini anglatadi. Bugungi kunda muhim ijtimoiy fuksiyalardan biri



barkamol avlodni voyaga yetkazish bilan birga ularda turli axborot xurujlariga kompyuterga tobelikka qarshi tura oladigan barqaror immun tizimini shakllantirishdan iborat. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish borasidagi ishlar yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Shu nuqtai nazardan tadqiqotchilar asosiy e‘tiborni yoshlarda kompyuterga tobelikning shaxs xarakterologik xususiyatlariga ta‘sirini tadqiq etishga qaratishmoqda. Bu o‘z navbatida, kompyuterga tobelikning shaxs xarakterologik xususiyatlarini belgilovchi psixologik omillarni tadqiq etish dolzarb masala ekanligini tasdiqlaydi. Sun‘iy intellektning inson (psixikasiga) yani bilish jarayonlariga tasiri: yani-bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur kabila kirtadi. Bularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. Insoning eng muhim bilish jarayonlarida hisoblangan sezgi azolariga qanday ta‘sir etishini ko‘rib chiqamiz. Ma'lumki bizni o‘rab turgan tashqi olamdagi narsa va hodisalarning juda ko‘p belgi va xususiyatlari mavjud. Masalan, narsalarning rangi, ta‘mi, hidi, qattiq yoki yumshoqligi, g‘adir-budur yoki tekisligi, harorat va boshqalar. Ana shu narsa va hodisalarning turli xil belgi, xususiyatlarini biz ham turlicha sezgi a‘zolarimiz orqali ongimizda aks ettiramiz. Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarning turli xil belgi hamda xususiyatlari har doim ham bizning sezgi a‘zolarimizga ta‘sir etib turadi. Natijada bizda turli sezgilar hosil bo‘ladi. Chunonchi, nurlarning ko‘zimizga ta‘sir qilishi natijasida ko‘rish sezgisi, har xil tezlik va kuchlanishdagi havo to‘lqinlarining qulog‘imizga ta‘sir etishi natijasida eshitish sezgisi, nafas olish paytida havo bilan birga burun bo‘shlig‘iga kirgan har turli modda zarrachalarining ta‘siri natijasida hid sezgisi, biror narsani qo‘limiz yoki badanimizga tegib ta‘sir etish natijasida teri (taktil - biror narsaning terimizga tegishi) yoki bosim sezgisi va shu kabi sezgilar har doim hosil bo‘ladi. Demak, sezgi deb- atrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a‘zolarimizga bevosita ta‘sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishini aytamiz. Sezgi azolarimiz ham o‘z navbatida bir necha turlarga bo‘linadi. Kompyuterlarning shaxs ko‘rish sezgisiga ta‘sirini ko‘rib chiqamiz. Ko‘rish sezgilarining organi ko‘z hisoblanib, u ko‘z soqqasi undan chiqib



keladigan ko'ruv nervlaridan tashkil topgan bo'lib, ko'z soqqasini tashqi tomirlari va to'rpardalari o'rab turadi. Kompyuter bilan ishlash davomida ko'z doimiy ravishda ekranga qaratiladi. Monitor yorug'lik manbaigina bo'lib qolmay, balki uning muntazam ravishda jimirlashi ko'zni ta'sirlantiradi. Kompyuterdan ko'p foydalanganda ko'zda og'riq, uning yoshlanishi, ko'z qorachiq-lari va soqqasi, qovoqlar qizarishi, peshona sohasidagi charchoq, toliqish holatlari kuzatilib, bu "dis-pley" kasalligi deb nomlanadi. Suniy intellekt inson inson psixikasiga kuchli tasir etadi. Buning natijasida insonlarda depressiya, stress, agressiya holatlari yuzaga keladi. Kompyuter o'yinari natijasida yoshlarda bir biriga, atrof muhitdagi insonlarga tajavuzkorligi (agressiya) shakilanib bormoqda. Agressiv holat haqida bolalarda o'tkazilgan tadqiqotlar haqida nazariy ma'lumotlar bilan tanishamiz. Bolalardagi agressiya bugungi kunda ko'p kuzatiladigan muammolardan biridir. Agressivlik holati ko'pchilik kichik yoshdagi bolalarga xos bo'lib, ko'p hollarda agressiv xatti-harakat "o'tish" davrida kuzatiladi. Bola yosh davrlari inqirozi paytida qiyinchiliklarga ro'baro' bo'ladi, natijada uning xatti-harakatlarida agressiya elementlari kuzatila boshlanadi. Maktabgacha ta'lim muassalaridagi bolalarni kuzatish jarayonida ma'lum bir toifadagi bolalarni kuzatish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, agressiv xulq-atvor rivojlanib, barqaror shaxsiy xususiyatlarga aylanar ekan. Natijada, bolaning ishlab chiqarish salohiyati pasayadi, uning shaxsiy rivojlanishi deformatsiyalanadi. Kelajagimiz poydevori bo'lgan bolalarni Sun'iy intellektga tobe bo'lib qolishidan asrashimiz lozim. O'zbekistonda internetga-tobelik fenomeni oxirgi o'n yillikdagina tadqiqot predmetiga aylandi. Mazkur yo'nalishda O'zbek olimlari tomonidan kam sonli tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, asosiy e'tibor kompyuter o'yinlariga tobelikning bola psixik taraqqiyotiga salbiy ta'sirini o'rganishga qaratilgan. N.M.Dolimova tomonidan O'zbek milliy muhitida o'smirlarning kompyuter o'yinlariga tobeligini diagnostika qilish va korreksiya qilish masalasi yoritilgan bo'lib, (2010), unda kompyuter o'yinlariga tobeligi mavjud o'smirlarda bezovtalik va agressiyaning oshishi aniqlangan. I.I.Raximova tomonidan kichik maktab yoshi, o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshida kompyuter o'yinlariga tobelikni, shuningdek oilaviy munosabatlar va sotsiometrik status bilan aloqadorlik jihatlari o'rganilgan. Kompyuter texnologiyalarini joriy qilish shaxs faoliyatining



psixologik tuzilishida tuzilmaviy va funksional o'zgarishlarga olib keladi. Xorij va MDH mamlakatlarining statistik ma'lumotlariga ko'ra, 11 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'smir va o'spirinlar zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'siriga tez beriladilar. Aynan mana shu davr xarakter tuzilishining shakllanishida muhim yosh davri hisoblanadi: o'smirlik davrida xarakterdagi irodaviy sifatlar jadal rivojlanadi va mustahkamlanadi, ilk o'spirinlik davrida esa shaxsning qadriyatlari, dunyoqarashi shakllanadi, bu ularning muloqot doirasi va yetakchi faoliyati bilan tavsiflanadi. O'smirlarning kompyuterga tobeligini determinantlovchi “faoliyatga yo'nalganlik” kompyuterga tobelikdan qutilishiga yordam beruvchi psixologik omillar ekanligi ilmiy jihatdan aniqlangan; kompyuterga tobe shaxsning “emotsional beqarorlik”, “haddan ziyod berilib ketish”, “o'zidan qoniqmaslik”, “qo'rquv” kabi psixologik xususiyatlari o'smirlar emotsional tuyg'ulari nazoratini susaytiruvchi psixologik omil ekanligi aniqlangan; o'smirlarda kompyuterga tobelikdan himoyalanişning “emotsional bilimdonlik”, “emotsiyalarni boshqarish” va “o'z-o'ziga motivatsiya berish” yetuk emotsional soha ekanligi empirik ma'lumotlar asosida tasdiqlangan; kompyuterga tobe o'smirlarda namoyon bo'ladigan shaxsiy ichki nizolar, “agressivlik”, “hukmronlik”, “betartiblik”, “egotsentrizm”, “frustratsiya” singari kommunikativ sifatlarni aniqlash orqali kompyuterga tobelikni aks ettiruvchi mezonlar tizimi takomillashtirilgan. Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: O'smirlik davrida kompyuterga tobelikka moyillikni aniqlovchi va uni korreksiya qilish mexanizmi sifatida kompyuterga tobelik va shaxs emotsional kommunikativ sohalari o'rtasidagi muhim bog'liqlik aniqlangan; kompyuterga tobe shaxsning shaxslararo munosabatlarida odamovilik, introvertlik, ijtimoiy aloqalarga kirishishdagi passivlik, o'ziga nisbatan tanqidiy qarash, shaxs xususiyatlari, o'z xulq-atvori hamda muvaffaqiyatsizliklaridan qoniqmaslik bilan bog'liqligi asoslangan; O'smirlik davrida kompyuterga psixologik tobelikni kamaytirishga yo'naltirilgan psixokorreksion dastur ishlab chiqilib, aprobatsiyadan o'tkazilgan. Hamda uzoq mudat Sun'iy intellektdan foydalanish insonlarda muntazam charchoqni yuzaga keltiradi bu esa stressga olib keladi. Stress tushunchasining mazmuni mohiyati borasida qator ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy tomonidan stress-efektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomiyligiga ko'ra



kayfiyatlarga yaqin bo'lgan his tuyg'ularni boshdan kechirilishining alohida shaklidir, deb ta'rif beriladi. E.G'ozievning umumiy psixologiya kitobida yozilishicha, stress-og'ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar ishlarning me'yorida oshib, ketib xavfli vaziyatlar tug'ilganida, zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo'rqishlar sifatida ko'rsatiladi. Stress - inson organizmini haddan tashqari zo'riqish natijasida paydo bo'ladigan tanglik jarayonidir. Stress ko'rinishiga qarab ikki turga ajratiladi: 1. Konstruktiv -biz turidagi (ko'pchilik orasida); 2. Destruktiv - men turidagi (yakka shaxs o'zi bilan) kechadigan jarayon. Stress holatini oddiy tilda aytadigan bo'lsak, bu insonlarda kechadigan tushkunlik holatidir. Stressni fiziologik va psixologik turlari mavjud. Fiziologik stress - bu o'ta jismoniy zo'riqish, biror og'riq, qo'rquv, kasalliklar natijasida vujudga keladi. Psixologik stress- odamning ruhiy holatiga voqealarni ta'siri tufayli paydo bo'ladigan stress. Yoshlarimiz ko'p vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda, internet kafelarda har xil ma'lumotlar olish o'yinlar o'ynashga sarflashmoqda buning natijasida ko'z orqali qabul qilinayotgan ma'lumotlar har xil o'yilar insoning xotirasiga ham ta'sir qilmoqda hamda insonda kuchli charchash holatini yuzaga keltirmoqda psixik charchagan insonda stress yuzaga kelmoqda asabiy holatlari yuzaga chiqmoqda. Bunday holatlar insonlarni bir biridan uzoqlashtirmoqda. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki har bir inson bu yangi texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalansa zarar ko'rmaydi. Hozirda rivojlanib borayotgan har bir sohani kompyuter va ijtimoiy tarmoqlarsiz tassavur etib bo'lmaydi. Bularga misol qilib tibbiyot, pedagogika, iqtisod sohalarni keltirishimiz mumkin. Zamonaviy kompyuterlar bu sohalarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Insonlar bu kabi tehnikalardan o'z manfaat uchun foydalanishi zarur. Ammo ayrim hollarda buning teskari holatlari ham kuzatilib qolayotganligi insoning dilini hira qilmoqda. Bu kabi uskunalar insonlar ongini zabt etmoqda. Lekin nima bo'lganda ham (suniy ong) inson uchun berigan bebaho ne'mat tabiiy ong o'rnini bosa olmaydi bunga misol qilib quyidagi tajribani keltirish mumkin. Bir paytlarda Amerikada barcha tamaddixonalarni avtomatlashtirish avj olgan edi. Ammo ko'p o'tmay ularning egalari kasodga uchray boshladi. Ma'lum bo'lishicha, bu yerga odamlar nafaqat tammadi qilish, balki suhbatdosh topish uchun ham kelganlar. Bundan ko'rinadiki, insonlar doimo



muloqotga insonlar bilan birga bo'lishga ehtiyoj sezadilar va bularni qondirishga harakat qiladilar. Shuning uchun kompyuterlarga bog'lanib qolmaslikga harakat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi. Правдьявостока газетаси. M.Tojimatova. 01.08.2021
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T. “O'zbekiston”, 2011. “infoCom.uz arxivlari”
3. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. “Umumiy psixologiya” 3-bo'lim. 115-230.
4. F.M.Yo'ldosheva. “Yosh davrlar psixologiyasi” 4-mavzu. 15.
5. Nigmatulina Lilya Aliyevna “Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtorefarati”. Kirish. 5